



INSONPARVARLIK YONDASHUVI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASH

Raximova Madinabonu Rashit qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14875271>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 10-Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 15-Fevral 2025 yil

KEYWORDS

O'zbekiston, maktabgacha ta'lim, jamiyat, axloq, odob, tarbiya, qadriyat, shaxs, rivojlanish, muhit, ma'naviyat, madaniyat, ijtimoiy, insonparvarlik, bayramlar, donishmandlar, o'yin, mashg'ulotlar, estetik, jismoniy rivojlantirish.

ABSTRACT

Maqolada insonparvarlik yondashuvi vositasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi, bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongi, axloqiy hislari, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishni talab qiladi. Tarbiyalanuvchilarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni rivojlantirish, axloqiy bilim berish, tarbiyaviy vazifalarni bajarish, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur va tushunchalar berilgan.

O'zbek xalqi azaldan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni insonparvarlik ruhi, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o'ziga xos maktab yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiya, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rni beqiyosdir.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2019 yil 16-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qonunchilik palatasi tomonidan 22 oktyabrda qabul qilingan va 14 dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" Qonunni imzoladi. Ushbu qonunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi.

Mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim sohalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash" vazifalari asosida oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmonlari asosida qabul qilingan

“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

Inson hayotida ijtimoiylashu aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta’siriga tushadi. Ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi bilan shaxsning ma’naviy qiyofasi, yangi dunyoqarashi, g’oya va tasavvurlari, jumladan axloqi ham, shuningdek, unga bo‘lgan qarashlar ham o‘zgarib boradi. Shaxs o‘z dunyoqarashi, axloqiy qoidalarni va ular ta’sirida shakllangan odat va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o‘zini o‘rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlarga, yurish-turish va muomalalariga muayyan hayotiy muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi.

Axloq so’zi - lotincha «myeros», ya’ni moral, mantiq so’zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat’iy yozib qo’yilmagan ijtimoiy qonundir.

Inson uchun chiroyli odob, xulq va yaxshi tarbiya oltindan, har qancha boylikdan ham qadrli, ustun va afzaldir. Chunki, boylik bilan ham topilmaydigan narsalar xushxulqlik, chiroyli muomala bilan topilishi mumkin. Boylik asosan insonning o‘ziga foyda bersa, chiroyli odob bilan kishi barchaga manfaat yetkazadi. Boylik bilan berkitib bo‘lmaydigan ba’zi ayb-kamchiliklar chiroyli odob, xulq-atvor bilan yopilishi mumkin. Shu jihatdan odob-axloq boylikdan bir necha marta ustun turadi.

Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o‘zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma’naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o‘sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag‘batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma’naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshiyu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi Axloqiy ongliklik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi. Axloq - kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob - shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Insonparvar shaxsga xos xususiyat, xatti-harakat, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatidir. Ilg‘or fikrli kishilar qadim zamonlardan beri insonparvarlikni kuylab keldilar. Insonparvarlik - insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, bu-tun mavjudot, borliq insonga, uning baxtsaodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik Insonparvarlikning asosiy masalasidir. Insonparvarlik g‘oyalari uzoqtarixga ega. Ular baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta’limotlarda o‘z aksini topib kelmoqda.

Keyingi asrlar davomida Insonparvarlik goyalari gumanizm nomi bilan rivojlandi. Bu atama birinchi marta 19-asr boshlarida fanda ishlatila boshlandi va 20-asrning o‘rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni tanqid qilishga qaratildi. 2-jahon urushidan keyin jahon taraqqiyotida tub o‘zgarishlar yuz berib, haqiqiy Insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo’yildi. Buni BMT, YUNESKO kabi xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo tashkilotlar deklaratsiya va hujjatlarida ko‘rish mumkin. Insonparvarlik har bir huquqiy, demokratik davlatning hayot qoidalariidan biriga aylanmoqda.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Quydagi hadislarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», «Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman», «Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik». Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Albatta, ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini boyitadigan eng muhim omildir»

MUHOKAMA VA NATIJALAR Ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'ri so'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beriladi. A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir» - deydi mutafakkir A.Navoiy. A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'langan. Pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'limtarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarda axloqiy his- tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlar tarbiyalash. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar beradi. 1 Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni: Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash. Bolalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi; Shaxsni o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi. Axloqiy bilim, asosan axloqiy suhbatlar, ma'ruzalar, kechalar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari - oynayi jahon, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. [O'zbekiston](#) o'z siyosatini Insonparvarlik shartlari, talablari, qoidalariga, Sharq va [G'arb](#) davlatlarining eng [ilg'or](#) tajribalariga tayanib olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F., Toshpo'latova. Sh., Kayumova .N, Azamova .N Maktabgacha ta'lim pedagogikasi Toshkent-2019
2. Rasulov .Y, Nurmatova .O Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma Toshkent -2014
3. Mavlonova .R, To'rayeva .O, Xoliqberdiyev .K Pedagogika o'quv qo'llanma Toshkent- 2011
4. Рахмонов, Р. Р., & Бехруз, Х. (2022). УМУРТҚАСИЗЛАР ЗООЛОГИЯСИ ДАРСЛАРИДА “САРКОМАСТИГОФОРЛАР ТИПИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Uzbek Scholar Journal, 10, 558-569.
5. Рахмонов, Р. Р., Нўмонов, Қ. Х. Ў., Самадова, И. Ш., & Орипова, Ю. С. Қ. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ОВЧИЛИК СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 372-382.
6. Рахмонов, Р., Халилова, Н., Отамуродова, М., & Ибодова, С. (2023). ИХТИОФАГ ҚУШЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ БИОЗАРАРЛАНИШЛАР, УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ, МУҲОФАЗА ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(5 Part 2), 158-174.
7. Raximovich, R. R., Hamzayevich, B. A., & Umedjonovna, I. S. (2023). ZARARLI SUTEMIZUVCHILARNING INSON HAYOTIDAGI O 'RNI VA TABIATDAGI AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 2(1), 537-544.
8. Rakhimovich, R. R., & Rustamovich, R. A. (2019). Structure and distribution of animals in the Bukhara region. European science review, 2(1-2), 34-36.
9. Rakhimovich, R. R., Husniddinovna, J. H., Bekzod, U. M., & Ranjievna, S. M. (2023). Medicinal Properties and Use of Water Pepper (Polygonum Hydropiper L.). JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(3), 45-52.
10. Raximovich, R. R., & Xasan o'g, N. M. Q. (2023). GULXAYRI (ALTHAEA) NING MORFOLOGIYASI, ANATOMINIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. IQRO, 2(1), 620-625.
11. Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). Ecological positions of hunting species in Bukhara region. International Journal of Genetic Engineering, 7(1), 15-18.
12. Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS IN BUKHARA. Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia, (2), 65-68.
13. Rayimov, A., Rakhmonov, R., Nuriddinova, G., & Sanoqulov, R. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). Universum: химия и биология, (5-2), 62-65.
14. Рахмонов, Р., Рахимов, Ж., Мухаммаджонов, Б., & Бафоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕТИШТИРИЛАДИГАН МАНЗАРАЛИ БАЛИҚЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 1039-1051.

15. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). The role of adaptive reactions of starling synantropization. In Региональные проблемы экологии и охраны животного мира (pp. 167-169).
16. Rustamovich, R. A., & Rakhimovich, R. R. (2019). The distribution and number of *Acridothores tristis* in different habitats in the Kyzylkum region. *European science review*, 2(1-2), 37-39.
17. Rakhmonov, R. R., Naimovich, Z. A., & Khudoikulova, N. I. (2021). Possibilities of Introduction of Hunting Tourism in Hunting Farms of Bukhara Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(1), 253-256.
18. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). Around territories of dengizkul, kora-kir and zamonbobo lakes' species of reptiles part and numbers' in spring. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 800-804.
19. Рахмонов, Р. Р., Райимов, А. Р., Уракова, М. А., & Рахимов, Ж. Р. ҒУРРАК (ОБЫКНОВЕННАЯ ГОРЛИЦА) НИНГ ТАРҚАЛИШИ, БИОЛОГИЯСИ ВА АҲАМИЯТИ. Sayidova NS, Kazimova GX Grafik obyektlarda.
20. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., & Kenjayevana, N. H. (2021). Taxonomic Analysis of Hunting Milk Markers in Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 13.

INNOVATIVE
ACADEMY